

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

9-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 9 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Ahmadjonov Ahrorbek Shuhratbek o'g'li

THE JEWS OF CENTRAL ASIA DURING THE RUSSIAN EMPIRE AND SOVIET ERA:
THE LEGAL, SOCIAL, AND CULTURAL LIFE OF THE BUKHARAN JEWS 9-13

Xurramov Xamid Bobokul o'g'li

AMIR TEMUR DAVRIDA TERMIZ VA CHAG'ONIYON QANDAY O'RIN TUTGAN? 14-18

Zikirova Maxprat Soliyevna

HARBIY SOHADA VATANPARVARLIKNI KUCHAYTIRISH TENDENSIYALARI
VA ULARNING MILLIY XUSUSIYATLARI 19-25

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Амбарцумян Анастас Алексеевич

СОСТОЯНИЕ И НЕКОТОРЫЕ ПРИОРИТЕТЫ РАЗВИТИЯ
ЭНЕРГЕТИКИ УЗБЕКИСТАНА 26-38

Rajabov Alibek Xushnudbekovich

ILMIY-TADQIQOT VA ISHLANMALARNI MINTAQAVIY IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISH TENDENSIYALARIGA TA'SIRI 39-46

Xaytboyeva Nigora Bakmamatovna

OPPORTUNITIES FOR USING CUSTOMER-ORIENTED MARKETING STRATEGIES
IN TEXTILE ENTERPRISES 47-52

Shixiyev Raxim Muhammedovich

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGI TEXNIKALARINING
RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH
ISTIQBOLLARI 53-60

Pardayeva Ma'rifat Muzaffarovna

SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIY RIVOJLANISHINING EKONOMETRIK
VA STATISTIK TAHLILI 61-66

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Navro'zova Gulchehra Nigmatovna

BAHOUDIN NAQSHBAND RUBOIYLARIDA VASL MASALASI 67-70

Yuldasheva Diloram Yuldashevna

O'ZBEKISTONDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING
DOLZARB MASALALARI 71-74

Mamadaliyev Mansurjon Mamajonovich

ZAMONAVIY JAMIYATDA FUTBOL FALSAFASINING AHAMIYATI 75-80

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Ayimbetova Zamira

BADIIY ADABIYOTDA MOTIVLARNI TIZIMLASHTIRISH
VA TASNIFLASHNING NAZARIY ASOSLARI 81-87

<i>Kurbanbaev Djavod Aminbaevich</i> ANTROPOSENTRIZM PARADIGMASINING ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOIYILLARI	88-92
<i>Петросянц Эрнст</i> СЕЛЕБ-СЛОВА: ОККАЗИОНАЛИЗМЫ, РОЖДАЮЩИЕСЯ В МЕДИА	93-99
<i>Gulmuradova Sobira Rustam qizi</i> NAVOIY VA TILIMIZ	100-103
<i>Begmatova Sitora Bekzod qizi</i> ROMANTIZM OQIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING ASOSIY VAKILLARI	104-107

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Firuz Muxitdinova</i> JAMIYAT BARQARORLIGI VA SHAXSIY BURCH: JAVOBGARLIK MADANIYATI HAQIDA TAHLILYI MULOHAZA	108-113
<i>Qayumberdiyeva Dildora Doniyor qizi</i> NIZOLARNI HAL QILISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA MEDIATSIYA INSTITUTINING ROLI	114-123
<i>Narimanov Bekzod Abduvaliyevich</i> IJTIMOIY LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI FAOLLIGINI YUKSALTIRISHNING INNOVATSION USULLARI	124-135
<i>Umarova Barno Akbutayevna</i> FUQAROLIK SUDLARIDA ATROF-TABIIY MUHITGA NISBATAN YETKAZILGAN ZARARLARNI UNDIRISH BILAN SUD AMALIYOTIDAGI MUAMMOLARNING AYRIM JIHATLARI	136-143
<i>Rasulov Baxtiyor Shavkatovich</i> ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH QONUNCHILIGI IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI	144-150
<i>Normatov Ermamat Toyir o'g'li</i> ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHDA XALQARO HUQUQ VA MILLIY QONUNCHILIK	151-164
<i>Karamanova Benazir</i> YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING QONUN IJODKORLIGIDA ISHTIROKI	165-169
<i>Ametova Nurjamal Kudaybergenovna</i> JINOYATLARNI OLDINI OLISHDA QO'SHIMCHA JAZOLARNING PREVENTIV XUSUSIYATLARI	170-177
<i>Rajabov Sherzodbek Ravshanbekovich</i> NEUSTOYKA TO'LASH JAVOBGARLIK TURI SIFATIDA	178-181

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Madaminova Gulzoda Madaminovna</i> VOLEYBOL MASHG'ULOTLARI ORQALI MAKTAB O'QUVCHILARINING JISMONIY SIFAT KO'RSATKICHLARINI RIVOJLANTIRISH	182-185
--	---------

Rizayeva Gulnoza Xikmatuloyevna

AKADEMIK LITSEYLARDA "ATOM VA YADRO FIZIKASI BO'LIMI MAVZULARINI"
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O'QITISH METODIKASI. ("ELEMENTAR
ZARRALAR «BOG'I». POZITRONNING KASHF ETILISHI. ANTIZARRALAR. ELEMENTAR
ZARRALARNI XARAKTERLOVCHI KATTALIKLAR. ELEMENTAR ZARRALAR
FIZIKASIDAGI SAQLANISH QONUNLARI. ORALIQ BOZONLAR-KUCHSIZ O'ZARO
TA'SIRNING TASHUVCHILARI" MAVZUSI MISOLIDA) 186-197

Received: 15 August 2025
Accepted: 30 August 2025
Published: 15 September 2025

Article / Original Paper

NAVOI AND OUR LANGUAGE

Gulmuradova Sobira

Master, Samarkand, Uzbekistan

Abstract. The article is key sources important in the development of the Uzbek language to this day and Alisher Navoi to our tongue in the development of the Uzbek language to this day today. He also reflects the language views of the great scholar in the field of discussion of the great scientist.

Keywords: history, comment, dictionary, tradition, nationality, culture, nation, language, inheritance, science, linguistics.

NAVOIY VA TILIMIZ

Gulmuradova Sobira Rustam qizi,

Magistr, Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur maqolada tilimizning bugungi kunga qadar rivojlanishida asosiy ahamiyatga ega bo'lgan asosiy tilshunoslikka oid manbalar, shuningdek Alisher Navoiyning o'zbek tili ravnaqiga qo'shgan ulkan hissasi va uning tilga oid shoh asari "Muhokamat-ul lug'atayn" kitobi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: tarix, izoh, lug'at, an'ana, udum, milliylik, madaniyat, xalq, ma'naviyat. Til, meros, ilm, tilshunoslik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I9Y2025N15>

Istiqlol yillarida mumtoz adabiy merosimiz, xususan, Alisher Navoiy ijodiga bo'lgan munosabat, bu boradagi qarashlar yangi pog'onaga ko'tarildi. Endilikda ulug' shoir adabiy merosini chuqurroq tadqiq etish, u ilgari surgan g'oyalarning falsafiy asoslarini teranroq anglash, asarlarida ifodasini topgan komil inson muammosi mohiyatini tushunishga alohida e'tibor berilmoqda. Alisher Navoiy xalqimiz ma'naviy dunyosining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatib kelayotgan buyuk siymolarimizdan biridir. Bugungi kunda yoshlarimiz qalbida milliy g'urur, o'zlikni anglash, go'zallik va nafosatga shaydolik tuyg'ularini kamol toptirishda Navoiy asarlari muhim manba bo'la oladi. Zero, ulug' san'atkor asarlari mohiyatiga singdirilgan insonparvarlik, xalqparvarlik, adolat, haqiqat, imon-e'tiqod yetukligi, shukronalik, sabr-qanoat, kelajakka umidvorlik singari g'oyalar barcha davrlarda ham insoniyat ma'naviy kamoloti uchun muhimdir. Alisher Navoiy ijodini adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish qanchalik zarur va ahamiyatli bo'lsa, uning o'zbek adabiy tilini rivojlantirish va takomillashtirishdagi buyuk xizmatlari va lingvistik faoliyatini ham yanada chuqur o'rganish shunchalik zarur va ahamiyatlidir. [1: 3-4-b.]

"Muhokamat ul-lug'atayn" Alisher Navoiyning tilshunoslikka oid asarlaridan biri bo'lib, 1499-yilda yaratilgan. Navoiy mazkur asarda o'zbek tilining boyligini, qudratini, o'sha davr adabiy tillari qatoridan o'rin olishga qodir va haqli ekanligini ilmiy tomondan isbotladi. Asarda tillarning kelib chiqish masalasi, o'zbek va fors tillaridagi unli tovushlar tizimi, o'zbek tilidagi ba'zi lug'aviy hamda morfologik birliklarning ifoda imkoniyatlari yoritilgan. [3: 10-11-b.]

Dastlab har ikki tildagi unlilar qiyoslanganda, muallif fors tilida unlilar soni cheklanganligi, o'zbek tilida esa unlilar bir qancha ma'no farqlovchi variantlarga ega ekanligi va ular o'zaro uzun-qisqaligi bilan ajralib turishini dalillar orqali ko'rsatib bergan.

Lingvistika tarixida Alisher Navoiy boshlab bergan yangi ilmiy yo'nalishga asoslangan komprativistik tadqiqotlar Yevropada XIX asrning birinchi yarmiga kelibgina yaratila boshladi va bu tilshunoslik tarixida qiyosiy-tarixiy tilshunoslik nomi bilan o'rin egalladi. Hozirgi kunda bu yo'nalish zamonaviy tilshunoslikning yirik sohalaridan biriga aylangan. Tillarni qiyosiy nuqtai nazardan tadqiq qilish, ularga tarixiylik nuqtai nazardan yondashish kabilar qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning maydonga kelishiga, tilshunoslikda alohida mustaqil fan sifatida qat'iy tan olinishiga zamin yaratdi. Qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishi bilan tilshunoslik ham tarixiy, ham ilmiy-nazariy jihatdan mustahkam asosga ega bo'ldi.

Alisher Navoiy o'zbek va fors tillari leksikasini qiyoslash uchun tabiat manzaralari, uy-ro'zg'or buyumlari, ov jarayoni, hayvon va qushlarning turlari kabi juda ko'p sohaga oid so'zlarni keltirib, bu so'zlarning muqobili forschada yo'qligini, forslar ko'pincha o'sha o'zbekcha so'zlarning o'zini ishlatishlarini ta'kidlab, o'zbek tilining boy imkoniyatlarini har tomonlama ko'rsatadi. Uning quyidagi fikrlari ham buning isbotidir: "Xo'blarning ko'z va qoshlari orasinki, qabog' derlar, forsiyda bu uzvning oti yo'qtur". Alisher Navoiy so'zlarning ko'p ma'noligi, ma'nodoshligi masalasida ham o'zbek tilining imkoniyatlari kengligini, ularning she'riyatda turli nozik ma'nolarni ifodalashdagi ahamiyatini ot, it, tush, yon, yoq, bor, sog'in, tuz, ko'k va boshqa shu kabi so'zlar talqinida ko'rsatadi. Navoiy grammatik jihatdan ham o'zbek tili imkoniyatlari fors tilidan qolishmasligini tahlil etadi. [2: 7-jild]

Ma'lumki, qaysi til ma'noni qisqa yo'l bilan ifodalay olsa, shu til rivojlangan til hisoblanadi. O'zbek tilining rivojlangan til ekanligini shoir zaruriy misollar bilan ko'rsatib beradi. Masalan, Lakuna – "nomlanmagan tushunchalar". Fransuz tilidan olingan ushbu termin "bo'sh joy", "chuqurlik", "bo'shliq", "bo'sh katak" singari ma'nolarni anglatadi. Ushbu lingvistik termin XX asrning 70-80-yillaridan boshlab qo'llana boshlanganligi qayd etilgan. Lekin aslida bu hodisa ilk bor Navoiy tomonidan izohlangan. O'zbek tilida birgalik nisbat qisqagina *-(i)sh* qo'shimchasi orqali ifodalanadi. Forslar esa bu ma'noni so'z birikmasi orqali ifodalaydilar. Navoiy shaxs oti yasovchi -chi qo'shimchasining xususiyatini 30 ga yaqin so'z misolida isbotlab, o'zbek tili so'z yasash va fikr ifodalash jihatidan ham o'ziga xos imkoniyatlari keng ekanligini qator xarakterli misollar asosida ko'rsatadi. U: "O'zbek tilida bu xildagi nozik ma'noli so'z va iboralar ko'p, biroq bu kunga deguncha hech kishi haqiqatig'a mulohaza qilmog'on jihatidan bu yoshirun qolibdur. *Hunarsiz turkning sitam zarifyig'itlari osonliqqa bo'la forsiy alfoz bila nazm ayturg'a mashg'ul bo'libturlar*". Shuning uchun ham Navoiy o'zbek shoirlarini o'z tilida ijod qilishga da'vat etadi. [4: 112-b.]

Mazkur asarda faqat tilshunoslik masalalaridan so'z yuritilgan emas. Balki unda til tarixi, o'zbek adabiyoti tarixi, she'riy janr va badiiy san'atlar, fors-tojik adabiyoti namoyandalari va o'zining ijodiga doir qimmatbaho mulohazalar ham mavjud. Shuni eslatish joizki, Alisher Navoiy turkiy tilning fazilatlarini haqida so'z yuritganda o'sha davrda mashhur bo'lgan arab, fors-tojik va hind tillarini kamsitmaydi. Aksincha, ularning har biriga xos bo'lgan xususiyatlarni ham ehtirom bilan bayon etadi. Bundan kuzatilgan maqsad turkiy tilning fasohati va balog'ati haqida ilmiy asoslangan mulohazalarni bayon etish bilan bir qatorda "turk nozimlari o'z alfozlari bilan she'rg'a mashg'ulluq qilg'aylar va ko'ngul g'unchasi dog'idinki, pechlar chirmanibdur, bahor nasimidek anfos bila guldek ochilg'aylar". Demak, Navoiy turkiy tilning fasohati va lug'aviy

boyligini dalillar bilan isbotlash vositasida tilimizdagi adabiyot — she'riyatning ham yanada ravnaq topishi lozimligini nazarda tutgan. Navoiy ona tilini forsigo'ylar tanasidan butunlay xolos etish uchun ona tilini tahqirlagan, uni mensimagan shoirlarga qarshi keskin kurash olib bordi. U ilm-fanda arab tili va badiiy adabiyotda fors-tojik tili an'analarini keskin rad etdi. Ona tilining boyligi, badiiy-uslubiy vositalari, imkoniyatlarini namoyish etdi. Shoir barcha badiiy asarlari "Majolis un-nafois" va boshqa ilmiy asarlarini ona tilida yaratdi. "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida faqat qiyosiy tilshunoslik masalalaridan so'z yuritilgan emas, balki unda til tarixi, o'zbek adabiyoti tarixi, she'riy janr va badiiy san'atlar, fors-tojik adabiyoti namoyondalari asarlariga doir qimmatbaho mulohazalar ham mavjud. Navoiyning qayd qilishicha, turkiy til va turkiy tildagi adabiyot tarixi o'zaro chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun asarda Amir Temur, Shohruh Mirzo hamda Sulton Husayn Bayqaro zamonlarida turkiy tilning rivojlangani tufayli turkiy she'riyatning Mavlono Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Atoyi, Muqimiy, Amiriy, Yaqiniy, Gadoyi, Mavlono Lutfiy, Husayniy va o'zi kabi zabardast siymolari maydonga kelganligini qoniqish bilan uqtirib o'tadi. Shuningdek, bu jarayonning Sulton Husayn Bayqaro — Husayniy tomonidan qo'llab-quvvatlanishi tufayli yanada rivojlangani ta'kidlanadi. Bundan tashqari Navoiy arab she'riyatining zabardast namoyondalari haqida ham muxtasar, ammo hozirgi kunda arab adabiyotshunoslari tomonidan ma'qullangan mulohazalarni bayon etadi. Ushbu asarning to'rtta qo'lyozmasi bizgacha yetib kelgan bo'lib, uning birinchi nusxasi Istanbuldagi To'pqopi saroyi muzeyi Revan kutubxonasida saqlanayotgan Navoiy kulliyotidan o'rin olgan. Taxminlarga ko'ra, u mavjud nusxalarning eng eskisidir. Asarning yana bir nusxasi Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasining Fotih bo'limida saqlanmoqda va u Navoiy kulliyotiga kirgan. Asarning Parij nusxasi Parijdagi Milliy kutubxonada va asarning to'rtinchi qo'lyozmasi Budapeshtda saqlanmoqda. Tilshunoslikka oid ushbu asarning yangi nashri ana shu nusxalarni o'zaro qiyoslash natijasida yaratildi. "Muhokamat ul-lug'atayn" ilmiy asari turkiy tilshunoslikning nodir yodgorligi bo'lib, unda turkiy tilning o'ziga xos xususiyatlari, uning buyuk ahamiyatga molik badiiy yodgorliklarni yaratishga qodirligi masalasi ilmiy asosda yoritilgan. Shuning bilan birga asarning mavzu doirasi keng bo'lib, unda umuman adabiyotshunoslikning turli xildagi muhim muammolari tilga olingan va o'sha davrdagi nasrning o'ziga xos xususiyatlari o'z ifodasini topgan. [3: 83-84-b.]

Alisher Navoiyni to'la asos bilan va haqli ravishda o'zbek adabiy tilining asoschisi deb hisoblaymiz. Bu, albatta, Navoiy qandaydir yangi bir til yaratdi degan ma'noni anglatmaydi. Navoiyning buyuk xizmati shundaki, uning asarlarida o'zbek adabiy tilining umumxalq me'yorlari ishlab chiqildi va qat'iylashtirildi. Bu me'yorlar uning zamondoshlari va keyingi avlodlar tomonidan to'la ma'qullandi, yana rivojlantirildi. Adabiy tilning umumiy me'yorlarini yaratish faqat til qurilishidagina emas, balki uning turli uslub ko'rinishlarini ham qamrab oldi. Garchi Navoiy yagona umumiy me'yorlarni badiiy adabiyot tili asosida ishlab chiqqan bo'lsa ham, lekin ular faqat badiiy adabiyot tilinigina emas, balki umuman o'zbek adabiy tilining keyingi taraqqiyoti uchun ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Navoiy yaratgan juda ko'p hikmatli so'z va iboralar xalq maqollariga aylangan bo'lsa, uning obrazli badiiy iboralar xalqning ibratli hikmatlariga aylandi va o'zbek tili frazeologiyasini boyitdi. Bunday birikma va iboralar orqali u ijtimoiy hayotdagi voqea-hodisalarning xalq donoligiga xos xususiyatlarini umumlashtirib, qisqa-lo'nda va mazmunli ifodalash namunalarini ko'rsatdi. Shu tariqa Navoiy o'zining badiiy asarlari orqali o'zbek adabiy tilining bitmas-tuganmas boyligini ko'rsatdi, ning istiqbolini, kelgusi taraqqiyot yo'lini belgilab berdi. Navoiy bu haqida faxrlanib, "Muhokamat

ul-lugʻatayn” asarida: “Umidim uldir va xayolimga andoq kelurkim, suzuv martabasi avjdin kuyi inmagay va bu tartibim kavkabasi a’lo darajada o’zga yerni beganmagay”,-degan edi. Xulosa qilib aytganda, inson qalbining quvonch-u qaygʻusini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan kam topiladi va bu yetuk mutafakkir bizning bobokalonimiz ekanligidan faxrlanishimiz zarur. Zero, ona tiliga muhabbat, milliy gʻurur singari tuygʻular ham bizning ong-u shuurimizga dastavval Alisher Navoiy asarlari bilan kirib keladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Doniyorov X. Alisher Navoiy va oʻzbek adabiy tili. –T.: Gʻafur Gʻulom, 1972. -B. 3-6.
2. A. Navoiy. Mukammal asarlar toʻplami. –T. 2000, 16-jild.
3. Matyoqubova T. Alisher Navoiy hayoti va ijodi. –T. 2009.
4. Abdurahmonov Gʻ., Rustamov A. Navoiy tilining grammatik xususiyatlari. –T: Fan, 1984.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 9 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).